

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV  
G'ayrat SHOUMAROV  
Rustem REIMOV  
Risboy JO'RAYEV  
Shaxnoza XALILOVA  
Boris BLYAXER  
Iroda ABDULLAYEVA  
Ayubxon RADJIYEV  
Sharibboy ERGASHEV  
Feruz QODIROVA

### Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

### Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

### Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqiz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

### Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga

yo'naltirish va

psixologik-pedagogik

respublika tashxis markazi

«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI - 1019**

## Mundarija

### D.S.Abdullajanova.

Xalq ta'limi tizimida boshqaruv kadrlarini tanlashning ijtimoiy-psixologik mezonlari (ayol kadrlar zaxirasini shakllantirish misolida).....2

### D.Q.Sulaymanova.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan psixologik ishlarning ahamiyati.....4

### I.Q.Sayfullayeva.

Logopedik mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarni tashkil etishda art texnologiyalarning o'rni .....5

### R.O.Begmatov.

Maktab o'quvchilarida tajovuzkorlik hissi shakllanishining yosh dinamikasi .....7

### M.Mamatova.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutq nuqsonini bartaraf etishda mayda qo'l motorikaning roli.....9

### D.S.Nabiyeva.

Motor alaliyani bartaraf etishda noan'anaviy artikulyatsion gimnastikadan foydalanish ....10

### S.J.Achilova.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....12

### Sh.R.Axmedova, Z.I.Agzamova.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan logopediya shoxobchalarining maqsad va vazifalari .....14

### O.F.Haydarova.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga to'liq jalb qilishda ta'lim muassasalari o'qituvchilari faoliyatining mazmuni .....15

### D.R.Babayeva, M.A.Abdullayeva.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni atrof-olamni kuzatishga o'rgatish usullari .....17

### M.Badalova, T.Xalilov.

Xorijiy tajribalar asosida ta'lim sohasi boshqaruv tizimini takomillashtirishning mohiyati .....29

### M.Sh.Mansurov.

Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning Andijon viloyatidagi tahlili .....21

### D.F.Hamroqulova.

Bolalarda tabiatga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlash .....24

### N.K.Mamanazarova.

Istiqbolga ega bo'lgan haqiqiy kasblar .....26

### D.M.Maxmudova, A.A.Artikbayeva

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ertaklarni sahnalashtirishga o'rgatish .....27

### B.K.Muhamedsaidov, J.E.Pardaboyev, R.B.Daminova.

Texnologiya darslarida o'quvchilar texnik tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi .....29

### X.Sh.Yunusova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar .....32

### G.T.Yadgarova.

O'qituvchi kommunikativ kompetensiyasi - ta'lim va tarbiyaning muhim psixologik omili sifatida .....33

### Д.И.Илхамова.

Особенности взаимодействия в семье и школе - как факторы сохранения психологического благополучия детей .....35

### M.X.Karamyan.

Социально-психологическая адаптация - как фактор здорового поведения в подростковом и юношеском возрасте .....37

### A.B.Turdimuratova.

Intellekt testlarni standartlashtirish va eksperimental jarayon .....39

### M.T.Axmedova, N.A.Askarova, Z.U.Musratova.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning integratsion pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....41

### M.R.Vohidova.

Amaldagi o'quv dasturining fanlar kesimida tahlili .....43



tasdiqlandi. Demak, “Savodxonlik” metodikasi yaxshi psixometrik xususiyatlarga ega va o‘quv muvaffaqiyati ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lgan validlikka ega, intellektual qobiliyatlarni aniqlash uchun haqiqiy va muhim metodikadir.

Savodxonlik testining qoraqalpoq tilidagi variantini moslashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan psixometrik test muvaffaqiyatli o‘tdi. Tadqiqot natijalari savodxonlikni diagnostika qilishning, «Savodxonlik» metodikasining qo‘llash samaradorligini va ishlab chiqish tartibi psixodiagnostikaning zamonaviy talablariga javob berishini ko‘rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. Qodirov B.R. Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. – T.: 2014.
2. Syed Sajjad Hussain Development, validation and standardization of group verbal intelligence test in Urdu for adolescents —diss. dok. psixol. nauk. — P. 2001.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

M.T.Axmedova, Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, p.f.n.

N.A.Askarova, mazkur akademiyaning katta o‘qituvchisi

Z.U.Musratova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistratura bosqichi talabasi

В данной статье речь идет об интегрированных педагогических условиях формирования коммуникативной компетентности в процессе профессионального становления будущего учителя.

**Ключевые слова и понятия:** мир, будущий учитель, коммуникативная компетентность, формирование, интерактив, технология, интегративная среда обучения, педагогический механизм, личностный, профессиональный, социализация, обеспечение, социально-педагогические механизмы, эффективная подготовка.

This article deals with the integrated pedagogical conditions for the formation of communicative competence in the process of professional development of the future teacher.

**Key words and concepts:** world, future teacher, communicative competence, formation, interactive, technology, integrative learning environment, pedagogical mechanism, personal, professional, socialization, provision, socio-pedagogical mechanisms, effective training.

Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatga taktik va strategik yo‘nalganlikni tarbiyalash, affilatsiya motivi asosida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta‘lim amaliyoti integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta‘lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga kommunikativ kompetentlikni shakllantirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini ta‘minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini oliy pedagogik ta‘lim mazmuniga keng tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda integrativ ta‘lim (Blended Learning) asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta‘limning kommunikativ modelini takomillashtirish, talabalarda interfaol muloqot ko‘nikmasini shakllantirish jarayonida akmeologik yondashuvning o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish, kommunikativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta‘lim darajasini sifat

jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta‘lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga kommunikativ yo‘nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish” kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqotchi olim Z.Azimova kommunikativ kompetentlikni o‘rganishda o‘quvchilar jamoasidagi munosabatlarga e‘tiborni qaratib, quyidagi turlarga ajratib ko‘rsatgan:

1. Rasmiy munosabatlar. Ular lavozim asosida paydo bo‘ladi, qonun bilan belgilanadi, nizomlar, qoidalar va boshqalar bilan nazorat qilinadi.
2. Norasmiy munosabatlar. Ular insonning insonga shaxsiy munosabati asosida yuzaga kelib, bu kishilar uchun umumiy tartibda qabul qilingan qonunlar va me‘yorlar, qat‘iy o‘rnatilgan talablar va qoidalar bo‘lmaydi.
3. Vertikal munosabatlar. Bu shaxslararo aloqalar bo‘lib, ular jamoa ichida rasmiy yoki norasmiy lavozim pog‘onasida turli o‘rinni egallagan rahbar va uning xodimi, liderlar va jamoaning boshqa a‘zolari, umuman odamlar o‘rtasida shakllanishi mumkin.



4. Gorizontalar munosabatlari. Bu jamoada bir xil rasmiy yoki norasmiy o'rinni egallagan a'zolarining shaxslararo aloqasi. Bu ta'rif bizning nazirimizda aniq emas. Gorizontalar aloqalar tushunchasi asossiz chegaralangan. Guruhda vertikal munosabatlari ham gorizontalar munosabatlari ham birday mavjud bo'lishi mumkin. Bularni qarama-qarshi qo'yish mumkin emas.

5. Shaxslararo amaliy munosabatlari. Ular kishilarning birgalikda ishlashi yoki shu sababga bog'liq holda yuzaga keladi.

6. Shaxsiy munosabatlari – bu bajarayotgan ishlaridan qat'iy nazar insonlar o'rtasidagi munosabat. Ularni vertikal holdatda ham gorizontalar holdatda ham tuzish mumkin. Rivojlangan jamoada o'zaro munosabatlarning shaxsiy va amaliy tizimi shakllanadiki, ular bir-birini yaxshi to'ldirib, jamoa a'zolarining talab va ehtiyojlarini qondirishda turli darajada rol o'ynaydi.

7. Shaxslararo ratsional munosabatlari. Ularning asosini insonlarning qay darajada bir-birini bilishi va atrofdegilarning ularga nisbatan ob'ektiv bahosi tashkil etadi.

8. Emotsional munosabatlari. Bu insonning insonga nisbatan shaxsiy, individual qarashlariga asoslangan sub'ektiv bahosidir. Bu kabi munosabatlari faqat ijobiy yoki salbiy emotsiyalar bilan bog'liq holda yuzaga keladi; ular har doim ham inson haqida to'g'ri va ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanmaydi.

9. Asosiy faoliyat zaminiga qurilgan munosabatlari faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlari deb ataladi.

10. Faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlari. Ular bu faoliyat bilan bevosita bog'lanmagan bo'ladi. Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, rivojlangan jamoaning asosini birgalikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat va uning ichida shakllangan qatnashchilarning muloqoti va o'zaro aloqalari tashkil etadi.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasining mavjud talqinlari ushbu tushuncha fanlararo integrallik xususiyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Bunda kommunikativ kompetentlikning komponentli tarkibiga nisbatan keng bo'lib, "tilga oid, lingvistik, tashkiliy, pragmatik, sotsiolingvistik, diskursiv (munozara), strategik, o'quv, tematik, nutqiy, kompensator, sotsiomadaniy va ijtimoiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan to'plamini" o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlarga asoslanib, o'qituvchining kommunikativ kompetentlik tushunchasiga oydinlik kiritamiz.

O'qituvchining kommunikativ kompetentligi tushunchasi o'z ichiga quyidagi harakatlar uchun zarur bo'lgan uyg'unlashgan kompetensiyalarni kiritishni talab etadi:

- shaxslararo kommunikativ muloqot vaziyatlarini baholash va idrok etish (perseptiv komponent);


- kommunikativ muloqot jarayonida o'z xulq-atvorini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash (refleksiv komponent);

- shaxslararo muloqot uchun mos vositalarni tanlash, muloqot jarayonini boshqarish va insonning xulq-atvorini mos ravishda tartibga solish (xulq-atvor komponenti).

Bunda konsepsiyaga mos ravishda darajalar tuzilishi qat'iy ierarxiyaga asoslangan – yuqori daraja quyidagilarini belgilaydi. Tadqiqotchi I.A.Zimnyaya "komponentli yondashuv ta'limning natijali-maqsdali yo'nalishini belgilovchi sifatida tizimli, fanlararo" yondashuvdir, deya ta'rif beradi. U ham shaxsga, ham faoliyatga nisbatan tavsiflanadi, ya'ni u ham amaliy, pragmatik, shaxsga xoslanish xususiyatlariga ega. O'qituvchi kommunikativ kompetentligining shakllanish tizimi quyidagi jadvalda keltirilgan(1-chizma).

1-chizma

**Kommunikativ kompetentlikni pedagogda shakllantirish tizimi**



Kommunikativ kompetentlik pedagog tomonidan tanlangan kommunikatsiya uslubida va muloqotdagi rolli o'rinlarda o'z ifodasini topishi mumkin, ular yetakchilik qiluvchi o'zaro ta'sir qilish maqsadlari bilan ta'minlanib, barqaror ekspressiv xususiyatlar, shu bilan bir qatorda, muloqot vaziyati jarayonidagi kommunikativ harakatlar bilan tavsiflanadi. Pedagogning kommunikativ pozitsiyasi muloqotning belgilangan maqsadlariga erishish yo'llari hamda suhbatdoshiga nisbatan bo'lgan munosabati, shuningdek, o'zaro ta'sirning aniq muloqot uslubi jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan o'ziga xos talablarni aks ettirishi mumkin.

Tadqiqotimizda biz bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayonlarga tayandik. Integratsiya nima? Integratsiya – lotincha "integratio" tiklash, ijro etish, "integer" butun, birlashuv ma'nolarini anglatadi. Integratsiya – o'sish, rivojlanish jarayoni bo'lib, turli xil elementlarning bir-biriga ta'sirining natijasi hisoblanadi. Pedagogikada jarayon sifatida tushuniladi va talqin qilinadi. Pedagogikadagi integratsiya prinsipi ikki aspektida ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchidan, bu holat, uning uchun turli elementlar orasidagi hamjihatlik, tartibli va barqarorlikka xos. Ikkinchidan – ushbu holatga olib keluvchi jarayon. Bundan tashqari integratsiya – bu pedagogikada butun ta'lim tizimi samaradorligining juda muhim ko'rsatkichi, chunki uning yaxlitligi mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilarining qarashlarini tahlil qilib aytish mumkinki, kommunikativ kompetentlik empatik va refleksiv qobiliyatlar bilan to'ldirilgan integratsion kompetensiyalarning ma'lum miqdori sifatida talqin qilinadi. U maxsus o'quv mashg'ulotlari davomida shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, kommunikativ kompetentlikni quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

- muloqotda katta yutuqlarga erishganligini belgilovchi shaxs tavsifi;

- qobiliyatlar, shaxsga oid fazilatlar va erishilgan kompetensiyalarning yig'indisi;

- ko'rsatilgan natijalar samarali muloqotning ma'lum standartlariga mosligi.

Ko'rishimiz mumkinki, kommunikativ kompetentlik bu:

- birinchidan, insonning kommunikatsiya sohasidagi kompetensiyalarining yig'indisi bo'lib, ular ma'lum bir faoliyatni bajarish uchun zarur hisoblanadi;

- ikkinchidan, bu insonning boshqa insonlar bilan o'zaro hamkorligi, shaxslararo turli vaziyatlardagi mustaqil faoliyati jarayonida orttirgan hayotiy tajribasining qismidir;

- uchinchidan, bu insonning ijtimoiy-shaxsga oid sifatleri bo'lib, ular uning olam, shuningdek, o'z-o'zi bilan va o'zaro muloqotlarining butun tizimini tartibga soladi;

- to'rtinchidan, bu turli faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini aniqlab beruvchi va shu bilan birga, belgilangan faoliyat turiga ham mos keluvchi xususiyatdir;

- beshinchidan, bu insonning real hayotiy vaziyatlar vujudga kelganida yuqorida keltirilgan komponentlarga muvofiq holda o'z muloqot jarayonini tashkillashtirishga tayyorligi. Keltirilgan komponentlarning majudligi ma'lum sohada kishining mahsuldor-professional faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning majburiy shartidir.

**Adabiyotlar**

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. – T.: TDPU. 2016.

2. Axmedova M.T. Information security in internal and external policy of the state //jurnal pravonovyx issledovaniy. – 2020. – №. Special 2.

3. Axmedova M.T., Muslimov N.A.\ et al. Improvement of the methodology for the future teachers'professional competence development //european journal of molecular & clinical medicine. – 2020. – t. 7. – №. 9. – s. 2372-2380.



4. Allayarova S.N. Implementation of Modern Information Communication Technologies (ICT) in Higher Education Sector: International Experience and The Example of Uzbekistan // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – S. 386-392.

5. Melibayeva, R.N., Khashimova, M.K. Narmetova Yu, K., Komilova, M.O., & Bekmirov, T.R. (2020). Psychological mechanisms of development students' creative thinking. International journal of scientific & technology research, 9(03).

## AMALDAGI O'QUV DASTURINING FANLAR KESIMIDA TAHLILI

**M.R.Vohidova, A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti, Ta'lim mazmunini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi kichik ilmiy xodimi**

В этой статье рассматриваются некоторые проблемы и достижения текущей учебной программы общеобразовательных школ. Процесс предполагает использование зарубежного опыта, анализ механизмов обучения, программ и учебников. Еще одним важным моментом является то, что содержание учебников и международная программа оценивания для создания нового поколения учебников и учебных пособий были адаптированы к возрастным требованиям учащихся.

**Ключевые слова и понятия:** образование, программа, начальное образование, зарубежный опыт.

This article discusses some of the problems and achievements of the current curriculum of general education schools. The process involves the use of foreign experience, analysis of learning mechanisms, programs and textbooks. Another important point is that the content of the textbooks and the international assessment program to create a new generation of textbooks and teaching aids have been adapted to the age requirements of the students.

**Keywords and concepts:** education, program, primary education, foreign experience.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlari isloh qilinmoqda.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish maqsadida bugungi kunda xalq ta'limi tizimida qator islohotlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan barcha sohalar qatori xalq ta'limi sohasiga ham katta e'tibor qaratilib, maktab va o'qituvchi nufuzini oshirish, o'quvchilarga zamonaviy va sifatli bilim berish tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Soha vakillarining obro'-e'tibori va nufuzini oshirish maqsadida moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishning barcha choralarini ko'rilmoqda.

Prezidentimiz nutqida keltirilgandek, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh ber oladigan Milliy ta'lim tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta'lim dasturlari esa bugun pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Ulardagi har

bir yangilik, shubhasiz, o'qituvchilarni qiziqtiradi va ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, o'z fanini puxta o'rganishga yo'naltiradi. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi Milliy o'quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Milliy o'quv dasturi 2021-2022-o'quv yilidan respublikamizning barcha hududlarida 1-2-sinf o'quvchilari uchun amaliyotga tatbiq etilib, barcha sinflar kesimidagi haftalik yuklama 314 soat etib belgilandi (2019-yilda – 339 soat edi).

Amaldagi dastur grammatikani tushuntirish va yodlatishga asoslangan bo'lsa, yangi dasturda esa o'quvchi matni o'qish orqali nafaqat grammatika, balki uni amalda qo'llay olishiga urg'u berilgan. Endi o'quvchilar grammatik bilimlarni nazariy qoidalarni yodlab emas, balki matn va matn asosida berilgan mashqlarni bajarish orqali egallashi belgilangan, shuningdek ayrim qoidalar kiritib o'tilgan. Ona tilini o'qitish bo'yicha taklif etilayotgan dasturga ko'ra, o'quvchi 4 ta lingvistik ko'nikma – eshitib yoki o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasiga ega bo'lishi kerak.

Taklif etilayotgan adabiyotni o'qitish dasturiga ko'ra, darsliklardan badiiy asar tahliliga bag'ishlangan mazkur bo'lim olib tashlangan. Milliy o'quv dasturi asosida ona tili va adabiyot darsliklariga kiritilgan o'zgarishlar yillar davomida shakllangan savod va mustaqil fikrlash bilan bog'liq muammoga yechim bo'la olmaydi. Milliy dastur ilk kommunikativ vaziyatga asoslangan o'quv dasturi. Darsliklar ham shunga mos emas. Topshiriqlar berishda dialog tuzish, ssenariy tuzish kabi metodlardan ham faol foydalanish, so'zga hisobdorlikni oshirishga xizmat qiladigan yozma va og'zaki topshiriqlar berilmagan.

Shuningdek, eshitib tushunishni rivojlantirishda mexanik xotirani emas, ko'proq tafakkur qiladigan, javobini internetdan topib bo'lmaydigan topshiriqlar berilmagan. Darslikda berilgan mashqlar faqat yozma nutqni o'stirishga, o'quvchining og'zaki nutqini o'stirish uchun xizmat qilmaydi. Loyihalar orasida O'qish fanining dasturi umuman yo'q. Tushuntirish xatida bu haqida yozilmagan. Xalqaro tajribalar asosida yaratilgan Milliy o'quv dasturidagi bo'limlar 1-4 sinf darsliklarida bir xil bo'lib qolgan. Dastur mazmuniga sustkashlik bilan yondashilgan.

Tabiatshunoslik fani O'zbekistonda ham xorij mamlakatlar